

**DO'STLIK TO'G'RISIDAGI MAQOLLARNING O'ZBEK VA INGLIZ  
TILLARIDA LINGUA-CULTURAL TAHLILI**

*FarDU o'qituvchisi - Gofurova N.  
FarDU talabalari - Anvarova F.  
Nabieva M.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar qiyosiy tahlili izohlanadi. Asosiy mavzu-do'stlik hisoblanadi.

**Annotation:** In this article, proverbs in English and Uzbek languages, are comparatively discussed. The main topic is Friendship.

**Kalit so'zlar:** Do'stlik, sadoqat, madaniyat va qadrli tuyg'u.

**Key words:** Friendship, loyalty, culture and precious feeling.

O'zbek va ingliz tillari maqollari bilan tanishib chiqar ekanmiz, har ikki tilning maqoli-o'sha xalqning qadriyatini, dunyoqarashini hamda yashash tarzini o'zida aks etadi. Har bir xalqning maqollarida albatta, qandaydir tarbiyaviy ahamiyati mavjud. Shuningdek, maqollarga e'tibor qaratar ekanmiz, ushbu tillardagi do'stlik haqidagi maqollar bizning e'tiborimizni tortdi. Ikkita tilni qiyoslar ekanmiz, ikki tilda do'stlik haqidagi maqollarning soni talayginani tashkil etadi. *Maqol- xalq og'zaki ijodi janri, qisqa va lo'nda, obrazli va obratzsiz, Grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, u chuqur mazmunga ega.* Shu o'rinda ingliz tilidagi maqolga berilgan ta'rifni keltirib o'tmoqchimiz: *Proverb- a short, well-known pithy saying, stating a general truth or piece of advice.*

Inglizlarda ham maqollar shu bilan birga idiomalar ham katta kuchga egadir. Ular o'z nutqlarida juda ham ko'p foydalanishadi. Bundan maqsad biror bir fikr egasiga qisqa, lo'nda hamda tushunarliroq qilib, aks ettirishdir. Maqollar ichidan biz o'z tahlilimizga do'stlik haqidagi maqolni tanlab oldik hamda quyida ingliz va o'zbek tillarida maqollarni topdik:

1. Haqiqiy do'st kulfatda bilinadi.
2. A friend in need is a friend indeed.
3. Sen menga do'sting kimligini ayt, men sening kimligini aytaman.
4. Whoever walks with the wise becomes wise, but the companion of fools will suffer them.
5. The eyes of the friend is a good mirror.
6. Do'st kulfatda bilinar.
7. Dushman do'st orasidan chiqar.
8. One fake friend can do more damage than five enemies.

Ular ichida ko'pchiligidanizga tanish, ammo hammamiz yetarlicha qadrlashni bilmaydiganimiz-do'stlik tuyg'usidir. Do'stlik insonni ma'naviy qo'llab-quvvatlovchi, uning og'irini yengil qiluvchi, ruhiyatni ko'taruvchi, o'ziga ishonchni orttiruvchi kuchdir. Tabiiyki, bu tuyg'u insonda bir kunda shakllanib qolmaydi, u yillar davomida turli xil hodisalar, sinovlar orqali mustahkamlanadi. Qancha ko'p sinovdan o'tgan bo'lsa, shuncha qadrli bo'lib boradi. Hayotda haqiqiy sadoqatli do'st topish inson uchun katta baxtdir.

Afsuski, do'stlik har doim ham omadli bo'lavermaydi. Chunki, bu qadrli tuyg'uni his qilish uchun insonda vijdon, zehn kabi qimmatli boyliklar mavjud bo'lishi lozim. Shu o'rinda do'stlik mavzusi barcha xalqlar uchun birdek muhim, qadrli mavzu. Bu borada tabiiyki, ko'plab maqol, matal, ertak, hatto g'azallar ham bitilgan. Quyida bu mavzuda berilgan ijobiy va salbiy ruhdagi o'zbek va ingliz maqollari tahlilini ko'rib chiqamiz. Masalan: "Haqiqiy do'st kulfatda bilinadi" degan maqolni olaylik. Bu maqol bejizga paydo bo'lman. Insonning hayotida yaxshi va yomo kunlar bo'ishi tabiiy. Bunday holatda, inson kim bilandir hamfikr, hamsuhbat bo'lishni istaydi. Har doim ham ota-onasiga ayta olmaydi, iymanadi. Shunday hollarda bir dildosh do'stga muhtoj bo'ladi, yoki mushkul ahvolda qolganda inson eng yaqin do'stidan yordam so'rashi mumkin, shunday holatlarda ham haqiqiy do'stlik sinaladi. Xuddi shunday mavzudagi maqol biz o'rganayotgan ingliz tilida ham ifodalangan, sababi, inson qay millat vakili bo'lmasin, bitta hayotda va o'xshash qiyichiliklar bilan yashaydi: "A friend in need is a friend indeed".

Quyidagi maqolga e'tibor bering, "A friend to all is a friend to none" (tarjima: barchaga do'st bo'lgan inson-hechkimga do'st emas), darhaqiqat ko'pchilikka tegishli bo'ljan narsa, aslida hechkimga tegishli bo'lmaydi, istaganicha foydalanish, bemalol ishlatish mushkul masala, shu o'rinda do'stlik ham hamma uchun bir xil ko'rsatilganda, nafaqat soxtaga aylanadi, balki qadrsizlanadi. Tabiiyki, hammaga birdek yoqib bo'lmaydi, hammaning ham dunyoqarashi, fikrlashi, didi bir xil emas. Hammaga birdek yoqishga harakat qilgan inson esa, shubhali inson desak mubolag'a bo'lmaydi, sababi bu orqali inson rohat topmaydi, shunchaki ikkiyuzlamachilikni ko'rsatadi xolos.

Bundan tashqari, insonni qanday odamlar o'rab turgan bo'lsa, u ko'p hollarda ularning yo'lini to'g'ri deb biladi, ularning yo'liga yuradi. Shuning uchun ham inson do'st tanlashda juda ham ehtiyyot bo'lishi lozim. Shu o'rinda bir jumlan yodga olamiz: "Sen menga do'sting kimligini ayt, men sening kimligini aytaman". Tabiiyki, insonning do'stlariga qarab, 90% holatda uning kim ekanligini bilib olish mumkin. Ingliz tilida esa bu: "Whoever walks with the wise becomes wise, but the companion of fools will suffer them".

Bilamizki do'stlik haqida nafaqat ijobiy, balki ayrim salbiy maqollar ham mavjud. Ulardan ko'pchiliklari sotqinlik (betrayal) haqida bo'lib ikkala tilda ham o'z qiyosini

topgan. Ko'p holatlarda maqollar insonlarning holatini yaxshiroq tushuntirish uchun ishlataladigan bo'lib, ular ta'sirida gapning mazmun-mohiyati yanada kuchayadi, ayniqsa gap xiyonat haqida ketganida. Masalan, ingliz tilidagi "Friends are made in wine and proved in tears" degan proverb ya'ni maqol o'zimizning o'zbek tilida "Do'st kulfatda bilinar" maqoliga to'g'ri kelar ekan. Bundan ko'rinish turibdiki, inglizlarda "wine" ya'ni "vino" uzoq muddat yaxshi holatda turadigan narsalarni ifodalash uchun ishlataladi, ammo o'zbek tilida "vino" tushunchasi bizning ham diniy, ham tarbiyaviy jihatimizga mos kelmagani sabab bunday tushuncha emas, shunchaki kulfat so'zi orqali yetkazib berish maqsad qilingan. Jumladan, o'zbek tilidagi "Dushman do'st orasidan chiqar" maqoli ingliz tilida "One fake friend can do more damage than five enemies" ya'ni "Bitta soxta do'st besh nafar dushmandan ko'proq zarar keltiradi" ko'rinishida o'z aksini topgan. O'zbek tilidagi ko'rinish sodda, aniq va tushunarliroq bo'lsa, ingliz tilida bunga chuqurroq, raqamlar bilan yondoshilgan deb aytishimiz mumkin. Ingliz madaniyatida

"fake friends" boshqacha qilib aytganda "soxta do'stlar" tushunchasi keng tarqalgan bo'lib, ular eng ko'p nafratlanadigan narsalardan biri sanaladi. Vaholanki o'zbek mentalitetida xatto inson do'stining xiyonatiga uchragan taqdirda ham uni ayplashga hayo qilib, shunchaki kechirib yuboradi, aynan shu yerda ikki xalqning dunyoqarashidagi katta farqni payqashimiz mumkin bo'ladi.

Shuningdek, ingliz tilida mayjud bo'lgan "The eye of a friend is a

good mirror." (Do'stning ko'zi eng yaxshi ko'zgu) maqoli o'zbek tilidagi "Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib" maqoliga ekvivalent qilib olinadi. Bilamizki, inglizlar ishlataladigan o'xshatishlar o'zbek tilidagilardan anchagina farq qiladi va ular aynan "mirror" ya'ni "ko'zgu" so'zini tanlaganlari bu yerdagi maqolning ta'sirchanlik darajasini yanada oshirib bergan. O'zbek tilida esa aynan do'st va dushmanning birga keltirilishi ko'p holatlarda juft so'zlarni ishlatish odatiy hol ekanidan dalolat beradi.

Umuman olganda, agarda har bir maqolni ikki tilda ham lisoniy ham madaniy jihatdan tahlil qilinadigan bo'lsa, har biri alohida analizga muhtoj va bu keng ko'lamdag'i ishga aylanishi mumkin. Biroq ushbu maqolada ayrim keng tarqalgan maqollar tanlab olindi va qiyoslashga harakat qilindi. Xulosaga kelsak, har bir xalq albatta o'zining kelib-chiqishi, urf-odatlari va madaniyatidan kelib chiqqan holda maqollardan foydalanadi. Ularning orasidagi o'xshashliklardan ko'ra farqlar ko'zga yaqqol tashlanadi va tushuniladi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Khoshimova, N. A. (2021). ASSOCIATIVE FIELDS OF THE COLLECTIVE AND INDIVIDUAL CONSCIOUS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 436-439.
2. Hashimova, N., & Sattorov, T. (2021). USAGE OF ENGLISH MILITARY TERMINOLOGIES AS A NEUTRAL AND COLLOQUIAL VOCABULARY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 2(11), 162-167.

3. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o'zbek tillarining funksional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.
4. Xoshimova, N. (2019). External factors of associations' individuality. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 134-136.
5. Toirova, N. I. (2019). The significance of the symbols of Mirror and Portrait in teaching Symbolism. *sign*, 1, 22.
6. Mamajanova, M. (2021). MODEL CONCEPT MODELING IN LINGUISTICS TYPES OF LINGUISTIC MODELS. *Экономика и социум*, (1-1), 160-163.
7. Holbekova, M., Mamajonova, M., & Holbekov, S. (2021). COMMUNICATIVE APPROACH TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Экономика и социум*, (3-1), 83-85.
8. Mirzayevna, M. (2021). Innovative technologies in foreign language teaching methodology. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(12), 465-467.
9. Kasimova, G. (2022). IMPORTANCE OF ICE BREAKING ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH. *Science and innovation*, 1(B7), 117-120.
10. Makhmudovna, K. G. (2022). Creative Strategies to Improve Vocabulary Teaching. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 259-261.
11. Akhmedova, M. (2012). Characteristics of bronchial asthma associated with allergic rhinosinusitis in children. *Medical and Health Science Journal*, 11, 39-43.
12. Ibragimdjonovna, A. M. (2022). Developing professional communicative competence of medical students in a foreign language. *Eurasian Scientific Herald*, 15, 45-50.
13. Isaqjon, T. (2022). Strategies and techniques for improving EFL learners' reading skills. *Involta Scientific Journal*, 1(11), 94-99.
14. Mohira, A., & Isakjon, T. (2022). METHODOLOGY OF ENGLISH LANGUAGE. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 68-71.
15. Ahundjanova, M. A. (2020). METHODS AND METHODS OF TEACHING RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGE AND LITERATURE. *Экономика и социум*, (11), 46-49.
16. Ahundjanova, M. (2022). THE NEEDS FOR IMPROVING LEARNERS'AUTONOMY IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES—AS A KEY FACTOR TO BOOST LANGUAGE LEARNERS. *Science and innovation*, 1(B6), 390-392.
17. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.
18. Gafurova, N. (2020). Ҳозирги замон тилшунослигига “Термин” ва унга турлича ёндашувлар. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1), 58-62.
19. Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). EKVIVALENTSIZ LEKSIKANING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 209-212.

20. Oxunov, A. O. O. (2021). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA UNDOV SO'ZLAR (INTERJECTION) NING IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 401-406.
21. Abdukhalimova Sarvinozkhon. (2023). HOZIRGI INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ZIDLOV BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLARNING SEMANTIK TAHLILI . PEDAGOOGS Jurnali, 27(1), 153–157.
22. Абдухалимова, С. (2022). THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(4).
23. Abdumataljonovna, P. S. (2023). TILSHUNOSLIKDA REKLAMA DISKURSI VA UNING IFODASI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 15(1), 98-101.
24. Pakirdinova, S. (2023). ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA REKLAMA MATNI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSISYATLARI. Talqin va tadqiqotlar, 1(19).
25. Kochkorova, Z. A. Q. (2021). Translation aspects of the verbalizers of the concept of " wedding". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 989-994.
26. Mirzayev, A., & Oripova, S. (2022). COMMUNICATIVE METHOD—A NEW APPROACH IN THE PRACTICE OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE. *Science and innovation*, 1(B6), 778-783.
27. Ashurali, M. (2022). HOZIRGI KUNDAGI TA'LIM TIZIMIDA ONLAYN TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN METODNI TA'LIMGA JORIY QILISHNING AKTUALLIGI. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 25-28.
28. Узакова, Г. З. (2022). КОНЦЕПТ ВА УНИНГ ЛИСОНӢЙ ВОҚЕЛАНИШ ЖАРАЁНИ. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 42-45.
29. Узакова, Г. З. (2022). THE INFLUENCE OF NATIVE LANGUAGE IN LEARNING/TEACHING FOREIGN LANGUAGE. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 38-41.
30. Kosimova, M. U. (2021). Different classification of functional styles. Ученый XX века. 4 (85).7-8.
31. Kosimova,M.U. (2022) The characteristics of scientific style. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. 12(05). 931-933
32. Abdumataljonovna, P. S. (2022). Main Characteristics of Advertising Discourse in Modern Linguistics. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 9, 173-176.
33. Abdukhalimova Sarvinozkhon. (2023). ERRORS AND OBSTACLES IN INTERCULTURAL COMMUNICATION . Journal of New Century Innovations, 20(4), 108–112.
34. Rustambek, O., & Ashurali, M. (2022). THE METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 106-110.
35. "Do'stlik daraxtining yashil barglari" Naim Karimov
36. "My brilliant friend" Elena Ferante